

TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.

Ruxshona Islomova Islom Qizi

Ulug'murodova Muhabbat Sobir Qizi

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika-psixologiya fakulteti Maktab
menejmenti yo'nalishi 820-22-(211) guruh.*

Annotatsiya: *Tarbiya jarayonining asosi ijtimoiy hayotning obyektiv talablarini, Insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlardan iborat. Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada obyektiv ravishda mavjud bo'ladigan barqaror aloqalar kuzatiladi. Bunday aloqalar qonuniyat deb ataladi. Bu qonuniyat tarbiya jarayonida ham amal qiladi.*

Kalit so'zlar: *Demokratik tamoyillar, psixologik tavsif, siyosiy-g'oyaviy asoslar, obyektiv va subyektiv omil, ijtimoiy hodisa, Tarbiya jarayoni, tarbiya tamoyillari.*

Tarbiya qonuniyatlari mohiyati, bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq. Tarbiyaning birinchi va eng muhim qonuniyati uning ijtimoiy muhitning Obyektiv va subyektiv omillariga bog'liqligidir. Ijtimoiy tarbiya mazmuni moddiy ishlab chiqarish usuli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzum hamda milliy mafkura g'oyalari asosida qaror topadi. Ijtimoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-g'oyaviy asoslarini tashkil qiladigan hamda tarbiyaning mazmuni va uning olib borilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy jarayonlar — tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar, oila muhiti, jamoatchilik dunyoqarashi, mafkura g'oyalari, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga oid faoliyat kabilar tarbiyaning subyektiv omillari sirasiga kiradi. Demokratik tamoyillar hamda qonun ustuvorligi ta'minlangan yillar va bunday sharoitda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy muhit bilan o'rnatiladigan aloqalari shaxs tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyaning ikkinchi muhim qonuniyati uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligidir. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning g'oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog'liq. Ayni choqda tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga ham bog'liq. Tarbiya jarayoni psixologiya fani asoslarini, shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonunlarini bilishni talab qiladi. Tarbiyachi (o'qituvchi) Tarbiyalanuvchi (o'quvchi) shaxsini har tomonlama o'rganishi va shu asosda unga To'g'ri psixologik tavsif berishi, shu asosda ta'sir ko'rsatishi lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, Tarbiyaviy ta'sir bir tomonlama yoki tasodifiy bo'lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa Tarbiyaviy ta'sirlarga mos bo'lmay qoladi. Tarbiyaning uchinchi qonuniyati — faoliyat va munosabat birligini e'tirof etish — shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbayi ekanligini e'tirof etishdir. Tarbiyalanuvchilarning faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali ravishda maqsadga muvofiq tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatning oqilona

bo'lishi ta'minlansa, tarbiya jarayoni shunchalik samarali bo'ladi. Shaxs faoliyati ijtimoiy munosabatlar negizida yo'lga qo'yilib, tizimli tarzda kechadi. Subyekt (shaxs), Obyekt (ijtimoiy borliq) — ijtimoiy munosabatlar tarzida tashkil etiladigan aloqa jarayoni shaxs faoliyati mazmuni va yo'nalishini ham belgilashi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida borliqni his etish, o'z-o'zini anglash, aloqa, aralashuv va muloqotni tashkil etish ehtiyoji yuzaga keladi. Ehtiyojni qondirish yo'lida dastlabki urinish ijtimoiy munosabatlar mazmunini o'rganish va o'zlashtirish hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglashga qaratilgan faolit jarayonida ijtimoiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqish hosil bo'ladi. Qiziqish, o'z navbatida, shaxsda muayyan hayotiy maqsadning qaror topishiga olib keladi. Maqsad asosida shaxs nafaqat ijtimoiy bilimlarni egallashga intiladi, balki o'zlashtirilgan bilimlarni egallash layoqatini ham namoyon eta boradi. Maqsad mazmunini ifoda etuvchi g'oyalar amaliy harakatlarni tashkil etish borasidagi rag'batlarning yuzaga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglashiladiki, shaxsning shakllanishi — bu uning asosiy munosabatlarining shakllanishidir. Ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimida tarbiyachi, o'qituvchi, ota-onalar hamda jamoaning tarbiyalanuvchi, o'quvchi, farzandlar va shaxs bilan bo'ladigan o'zaro ta'siri jarayonida kelib chiqadigan tarbiyalovchi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Bu munosabatlar doirasida ijtimoiy tarbiyaning maqsadlari amalga oshiriladi. Tarbiyaning to'rtinchi qonuniyati — tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi sanaladi. Tarbiyachi (o'qituvchi)larning tarbiyalanuvchi (o'quvchi)larga pedagogik ta'siri ular faoliyati va munosabatlarining tizimli hamda rejali tarzda, maqsadga muvofiq tashkil qilinishini nazarda tutadi. Tarbiya jarayonida tarbiyachi (o'qituvchi) va tarbiyala nuvchi (o'quvchi)larning ijtimoiy roli bir xil emas. Tarbiyachi uchun tarbiyalanuvchi har vaqt tarbiya berish obyekti hisoblanadi. Biroq tarbiyalanuvchi tarbiyachi bilan ongli ravishda o'zaro munosabatda bo'lishga erishilsa, tarbiyaviy munosabatlar faol xarakter kasb etadi. Rivojlantiruvchi (shaxsni rivojlantirish), tarbiyalovchi (tarbiya maqsadlarini amalga oshirish) va tashkilotchilik (faoliyat va munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish) tarbiya jarayonidagi asosiy vazifalardir. Tarbiyalovchi ta'sirlar muayyan shaxslarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, ta'sir ko'rsatishning individual yo'llarini qidirib topishi lozim. Tarbiyachi muvaffaqiyati aksariyat hollarda u o'z o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini, ya'ni ularning ongliligi, axloqiy sifatlarga egaligi, Odilligi, qat'iyatliligi va boshqa xususiyatlarini bilishiga bog'liqdir.

Tarbiya tamoyillari deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisiga aytiladi. Tarbiya tamoyillari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg'or ta'limotlar g'oyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan

yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi uning samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat: — tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi; — tarbiyada demokratik va Insonparvarlik g'oyalari ustunligi; — tarbiyada milliy umumbashariy qadriyatlar ustunligi; — tarbiyada izchillik va tizimlilik; — tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish; — tarbiyani mehnat bilan bog'lash; — tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish; — tarbiyada o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; — Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash; — tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy Sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish. Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi. O'qituvchi ijtimoiy tarbiyaning maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi hamda puxta anglab olishi zarur. Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash — ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirish, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublika xalq ta'limi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis va komil shaxsni tarbiyalashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Rayhon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. — T.: «O'zbekiston», 1992
2. Z. K. Ismailova. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. — T.: «Fan», 2001.
3. www.ziyouz.com
4. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risida||gi Qonuni.// Barkamol Avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: Sharq, 1997